UO‘K:30.303.303.7

TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASH TAMOYILLARI VA SHAKLLARI

S.Sh. Abdurahmonova

Maqolada pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash tamoyillari va shakllari o‘rganilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartiga asosan namunaviy xatti-harakat, xulq-atvor normalarini talabalarga singdirish orqali hamkorlik faoliyatini amalga oshirish uning muhim vazifasi ekanligi qayd etilgan. Zamonaviy tarbiyachi uchun zarur bo‘lgan ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarining samaradorligini belgilovchi eng muhim shaxsiy xususiyatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik (malakaviy) amaliyot, MTT, hamkorlik madaniyati, pedagogning kasbiy standarti, pedagogning roli, tamoyil, shakl.*

В статье рассмотрены принципы и формы подготовки учащихся к сотрудничеству с родителями посредством педагогической практики. В профессиональном стандарте педагога дошкольной образовательной организации отмечается, что важной задачей является осуществление совместной деятельности путем привития учащимся образцовых поведенческих норм поведения. Показаны важнейшие черты личности, необходимые для современного воспитателя, определяющие эффективность его взаимодействия с родителями.

Ключевые слова: *педагогическая (квалификационная) практика, ДОО, культура сотрудничества, профессиональный стандарт педагога, роль педагога, принцип, форма.*

Kirish

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, innovatsion potensialga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarga muvaffaqiyatli va sifatli ta’lim berish bilan bir qatorda ularda tashkiliy, konstruktiv, kommunikativ muloqot, pedagogik mahorat va insoniy fazilatlar, ijodiy fikrlash, nizoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa olish ko‘nikmalarini tarkib toptirish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning takomillashtirishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar. Va bu ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar” [1].

Oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash, asosan, ikki muhim bo‘g‘in: ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikdan iborat. Amaliy tayyorgarlik nazariy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashni uzluksizligi va uzviyligiga, shuningdek, ta‘lim jarayonida tashkil etiladigan pedagogik (malakaviy) amaliyoti samaradorligiga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik amaliyot jarayonlarida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqish va shu asosida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va usullar

Ma’lumki, MTTda bolalar tarbiyasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq ko‘rgani, ular hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lgani uchun ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha juda ko‘p ishlarni tarbiyachilar amalga oshiradi. Ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko‘proq e’tibor berish kerakligi, ularni maktab ta’limiga tayyorlash, sog‘lig‘ini saqlash, ovqatlanishi va kun tartibini

to‘g‘ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Zamonaviy tarbiyachining ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarining samaradorligini belgilovchi eng muhim shaxsiy xususiyatlaridan biri bu hamkorlik madaniyatidir. Hamkorlik faoliyati birinchi galda ota-onalarning fikrlashi va o‘ziga xos xususiyatlari, farzand tarbiyasida pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishni inobatga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga uzviy bog‘lanadi.

S.L.Rubinshteyn [2] oila konsepsiyasini ota-onalar va bolalardan iborat bo‘lgan barqarorlik, doimiy xarakterga ega va nafaqat birlikda bog‘langan qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy jamoa shakli ekanligini ochib berdi. Olim oilani bolalarni ijtimoiylashtirish, rivojlantirish va tarbiyalashning asosiy omili sifatida ko‘radi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui (pedagogning kasbiy standarti) [3] va pedagogning roli (me’yoriy belgilangan va qo‘llab-quvvatlangan namunaviy xatti-harakat, xulq-atvor) [4]ni talabalar amaliyotda anglashi kerak. Ya’ni:

- davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko‘rsatishi, ta’lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qilishi;

- pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘z bilimi, ko‘nikma va resurslaridan foydalanishi, pedagog ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirib, bolaning har taraflama rivojlanishiga va uning salohiyatini yuksaltirishga hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishi;

- buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini bilishi, uning his-tuyg‘ularini tushunishi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlashi va ularni hisobga olishi;

- pedagog guruhda inklyuziv muhit yaratishi, bu muhitda har bir bola o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta’lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi;

- pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shishi; pedagog bolalarda zarurat bo‘lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo‘lishiga yordam berishi;

- pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o‘z kasbiy faoliyatini hujjatlashtirib, tahlil qilishi va baholashi;

- pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qilishi va o‘z ishini teng sheriklik asosida qurishi kerak.

Buning uchun amaliyot davridagi ijobiy sog‘lom muhit talabalarni tarbiyachi faoliyatini bevosita kuzatishda, ularning faol xatti-harakatlarini o‘z tasavvurida his qilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabaning xohishi, qiziqishi va hissiy yuksalishi kuchli ruhiy zo‘riqish ortiqcha ishlarga olib kelmasligi va foydali bo‘lishi talabalarni kasbiy sohada o‘zini-o‘zi anglashga o‘rgatishi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda boyitib borish uning qobiliyatini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Har qanday hamkorlik faoliyati ma’lum bir tamoyillarga tayanib talabalarni kasbiy shakllantirishga yo‘naltiradi.

Alohida qayd etish lozimki, pedagogik amaliyot jarayoni talablar, amaliyotni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo‘llari talabalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, hamkorlik qilish, uni hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish, shaxsiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, muloqotga kirishish, pedagogik muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, MTTda ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, amaliyot davridagi faoliyatini aniq va to‘g‘ri baholashga doir tushunchalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlarga amal qilgan holda biz tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi pedagogik texnologiya tamoyillar asosida faoliyat yuritdik va mazkur tamoyillarni rivojlantiruvchi ta’lim muhitidan tabiiy sharoitdan kelib chiqib takomillashtirdik.

O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:

1) ta’lim muassasalarining har bir o‘qituvchisi o‘z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;

2) o‘qituvchi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqadi, amaliyotda sinab ko‘radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya’ni ta’lim jarayonini tadqiq etadi.

O‘qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo‘lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Ta’limning uzluksizligi tamoyili. Mazkur tamoyil o‘quvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqatishi mumkin bo‘lgan bilimlarni tugal berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o‘n yil mobaynida o‘zgarib, mazmunan boyib boradi.

Demak, mazkur tamoyil talabaning o‘z faoliyatida mustaqil ta’limni tashkil etishga e’tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta’minlagan ta’limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog‘liqligiga asoslanadi. Didakti-

ka nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma’noda izohlanadi:

a) talabalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar;

b) ular tomonidan o‘zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyot tatbiqiga ega bo‘lmagan bilimlar tez orada unutilishi mumkin [5].

Masalaga boshqacha yondashadigan bo‘lsak, amaliyot rahbarlari va MTT tarbiyachisi birgalikda hamkorlik muhitini takomillashtirishi pedagogik amaliyot bosqichlarida talabaga ota-onalar bilan hamkorlik qilishda aniq va tizimli ko‘rsatma va yo‘riqnomalarni ishlab chiqishi va amaliyotga tadqiq qilishi (o‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili) orqali mustahkamlanadi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda hamkorlikka tayyorlash samaradorligini ta’minlashda talabalarni kommunikativ-kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy sifatlarni kelgusi tarbiyachilik faoliyatida (ta’limning uzluksizligi tamoyili) qo‘llash hamda nazariy va amaliy bilimlarni ota-onalar bilan birgalikda (faoliyatli yondashuv tamoyili), samarali faoliyatga zamin yaratadi hamda ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydi.

Natijalar

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlash masalasini tadqiqotimizning tizimli obyekti sifatida o‘rganib chiqib, uning quyidagi o‘ziga xos tavsiflarini qayd etdik:

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar;

- ko‘rsatma va yo‘riqnomalarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq qilish;
- kasbiy sifatlarni shakllantirish;
- kommunikativ-kompetensiyalarni rivojlantirish;
- nazariy va amaliy bilimlarni ota-onalar bilan birgalikda samarali faoliyatda qo‘llash;

Natijada quyidagi holatlarning yuzaga kelishiga sharoit yaratiladi:

- pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash mumkin;
- talabalarning kasbiy faoliyatda hamkorlik faoliyatga nisbatan mas’uliyati ortadi, kasbiy sifatlarni anglashi ta’minlanadi;
- talabalarning ota-onalar bilan kommunikativ-kompetensiya malakalari shakllanadi;
- hamkorlik faoliyatining nazariy-metodologik asoslari to‘g‘risida bilim hamda hamkorlik jarayonini samarali tashkil etish, o‘tkazish va baholash bo‘yicha, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi.

Pedagog olimlarning ilmiy-metodik xulosalari, shuningdek, muammoga oid kuzatuv va tajribalarimiz asosida aytish mumkinki, pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda hamkorlik jarayonlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim pedagogik mazmun kasb etadi va ularga kelajakdagi kasbida mas’uliyatlilikni, kasbiy harakatchanlilik shu bilan birga jamoa bilan ishlashni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Ma’lumki, MTTda tarbiyachi va ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllari belgilangan:

- Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib ularni o‘zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi.

- Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

- Ko‘rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko‘rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha materiallar solingan papka.


- Ota-onaga pedagogik ta’lim berish [6] va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida esa ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan pedagogik amaliyot davrining boshlang‘ich haftalarida tanishadilar.Quyida dasturdan o‘rin olgan tavsiyalarni keltiramiz. Bular:

- maktabgacha ta’lim tashkilotining ijtimoiy-madaniy muhitining xususiyatlari;
- oila bilan o‘zaro munosabatlarning shakllari va usullari;
- pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari;
- MTT pedagoglarning asosiy ijtimoiy sheriklari bilan o‘zaro munosabatlarning batafsil yoritilishi (ma’lum yo‘nalishlarga ega MTT uchun);
- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ta’limning uzluksizligi va ketma-ketligini ta’minlashga qaratilgan pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari taqdim etilishi haqida tavsiyalar berilgan.

Yuqoridagi hamkorlik shakllari va yo‘nalishlaridan kelib chiqib, talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning pedagogik shakllarini tavsiya etamiz.

1-jadval



1-rasm. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash shakllari.

Ko‘rsatib o‘tilgan jadval asosida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash shakllari mazmuni quyidagicha:

Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikning asosiy tamoyillari va qoidalari bilan tanishtirish. Talabalar hamkorlik nima ekanligini, uning maqsadlari nima ekanligini, hamkorlikning qanday shakllari va usullari mavjudligini bilishlari va ular ota-onalar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatishi, umumiy til topishi, bolani tarbiyalash va ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishi;

Talabalarning ota-onalari bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijobiy munosabatni shakllantirish.

Talabalarning ota-onalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini aniq va tushunarli tarzda ifoda eta olishlari, ota-onalarni tinglashlari, ularning fikrlariga hurmat ko‘rsatishlari, ota-onalar bilan ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv ya’ni tinch yo‘l bilan hal qila olishlari;

Talabalar kelajakda tarbiyachi sifatida ota-onalar **bola** hayotidagi eng yaqin va eng muhim inson ekanligini tushunishlari, ularga doimiy hurmat-e’tiborda bo‘lishlari va bu munosabatlarni ota-ona har doim his qilib turishini ta’minlashlari;

Pedagogik amaliyot davrida tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi asosida talaba va ota-onalar hamkorlik ishlarini rejalashtirish. Talabalarda ota-onalar bilan hamkorlik ishlarida o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish (ota-onalar majlislari, otalar kuni, pedagogik kengashda ota-onalar ishtiroki, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yakka va davra suhbatlari, sport musobaqalarini rejalashtirishda talaba ishtirokini ta’minlash);

Amaliyot rahbari, talaba, tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish.

Hamkorlik ishini tashkil etishda amaliyot rahbari hamda MTT tarbiyachisi talabalar va ota-onalar o‘rtasida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi o‘zaro ta’sirni kuchaytirishi, ochiq munosabatlarga asoslangan hamkorlik faoliyatini tashkil etishda zarur shart-sharoitlarni yaratishi, hamkorlikning xorijiy tajribalar asosida milliy pedagogik modelini ta’lim jarayoniga tatbiq etishi, MTTda hamkorlik ishining asosiy maqsadi bo‘lgan tarbiyalanuvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni amaliyotga joriy qilinishi natijasida amalga oshiriladi.

Kuzatishlarimiz davomida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda ijobiy samaradorlikka erishish uchun olib borilgan tahlillar quyidagi mulohazalarni yuzaga chiqardi. Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash maktabgacha ta’lim-tarbiya va hamkorlik faoliyati sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. U talabalarda tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, talaba va tarbiyachilar faoliyatining o‘zaro uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Biror uslubni tanlash uchun MTT tarbiyachisi talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik ishlariga tayyorgarlik darajasini, kommunikativ kompetensiyalarni egallashi, ota-onalar bilan hamkorlikka oid treninglar, suhbatlarni mustaqil bajara olishi, o‘z-o‘zini boshqarish darajasining rivojlanishi hamda ish qobiliyati holatini oldindan bilishi kerak. Bu jarayonning asosiy vazifasi talabalarni amaliyotdagi faolligi hamda

tadbirlarda ishtirokini ta’minlashdan iboratdir. Shunga ko‘ra, hamkorlikka tayyorlashni tashkil etishda ota-onalar fikri inobatga olinadi.

Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashni rivojlantirish bo‘yicha tarbiyaviy, ijtimoiy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olinadi va ularni umumlashtirgan holda eng samaralisi tanlanadi. Muhokamalar vaqtida barcha talabalarning ishtiroki ta’minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi.

Amaliyot rahbari zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat bo‘lmasdan, asosiy e’tiborni talabalarning ota-onalar bilan olib borgan hamkorlik ishlaridagi yutuqlarini e’tirof etgan yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali tavsiya berishga qaratiladi. Har bir talabaning ota-onalar bilan ishlashdagi yutug‘ini alohida e’tirof etish ularning yangi yutuqlarga erishishlariga poydevor bo‘ladi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan amaliyot rahbari har bir talabaning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi.


Pedagogik amaliyot jarayonida talaba tarbiyachigina emas, u psixolog ekanligini yodda tutmog‘i lozim. Chunki yaxshi tarbiyachi bo‘lish uchun yaxshi psixolog ham bo‘lish lozim [7]. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashga asoslangan faoliyat jarayoni amaliyot rahbarlarning talabalarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Bu borada keng tarqalgan metodik yondashuvlar ishontirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatish, o‘z-o‘zini tarbiyalashdan iboratdir [8].

Alohida qayd etish joizki, ta’lim sohasida kechayotgan islohotlar, jamiyatning ustuvor qadriyatlari shaxs shakllanishidagi talablar va maqsadni belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik amaliyot tizimi bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashning eng muhim elementlaridan biridir. Bu talabalarga tarbiyachi sifatida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash imkonini beradi.

Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan asosiy talab – eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarining pedagogik yetukligini rivojlantirishdir [9].

Talabalar ota-onalar bilan muloqot qilish, ular bilan birgalikda tadbirlarni tashkil etish, ota-ona va bola munosabatlaridagi muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash mazmun-mohiyati quyidagicha:

2-jadval.



2-rasm. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlash mazmuni, shakl, metod, vositalari.

Ko‘rsatib o‘tilganidek, pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashda metod va vositalarni to‘g‘ri tanlash ijobiy samara beradi. Shuningdek:

talabalar ota-onalari bilan mustaqil faoliyat olib boradilar;

seminar va maslahatlarda ota-onalar bilan ishlash muammolarini muhokama qilish;

amaliyot davomida tarbiyachining ish rejasini o‘rganish;

ota-onalar va tarbiyachilar konferensiyalarida qatnashish;

pedagogik amaliyot davrida ota-onalar bilan ishlash rejasini tuzish;

ota-onalar bilan tadbir tayyorlash va o‘tkazish imkonini beradi.

Muhokama

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikr-mulohazalar talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Va quyidagilarni umumlashtirish imkonini beradi:

1. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, pedagogik amaliyot bosqichlarini samarali, tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

3. Pedagogik amaliyot talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya’ni kasbiy-hamkorlik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, tarbiyalash, rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

4. Pedagogik amaliyot talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash o‘zida hamkorlikdagi faoliyat samaradorligi va shaxs kamoloti birligini ifoda etadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning asosiy maqsadi talabalarni oilaviy tarbiya asoslarini bilishi, ota-onalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlardagi muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayonida quyidagi pedagogik vazifalar hal etiladi:

1) MTTning ichki resurs va imkoniyatlari, mavjud shart-sharoitlarni inobatga olgan holda talabalarning hamkorlik ishlaridagi ishtirokini ta’minlash;

2) pedagogik amaliyotning barqaror tarzda o‘tishini ta’minlashda tashabbus ko‘rsata oladigan talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishda: izlanuvchi-ta’minlovchi (amaliyotda ota-onalar bilan hamkorlik kuzatiladi), ijodiy (hamkorlikka asoslangan bilimlarni bilishning oliy darajasi) hamda reproduktiv (talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatiga doir shaxsiy tajriba yetarli emasligi natijasida, pedagogik amaliyot tajriba orttiruvchi vosita sifatida qaraladi) tajribalarni tarkib toptirish komponentlarini shakllantirish masalasiga e’tibor qaratish;

3) talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikda namoyon bo‘ladigan obyektiv voqelikni va kasbiy ko‘nikmalarni hosil bo‘lishi (masalan: ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, tarbiyalanuvchilarni kuzatish orqali ota-onalar bilan suhbatga tayyorlanish) da hamkorlikning qaysi shakl va vositalaridan foydalanish lozimligini inobatga olish;

4) talabalarning hamkorlikka tayyorlash darajasini obyektiv nazorat qilish va baholash uchun pedagogik testlar ishlab chiqish.

Xulosa

Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktabgacha ta’lim tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo‘lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Bo‘lajak pedagog tarbiyachilarning – eng muhim qobiliyati – pedagogik jihatning shakllanishiga olib keladi [10].

Demak, talabalar hamkorlikka tayyorlashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, shu asosda pedagogik amaliyotda faoliyat turiga qarab kreativ yondashish, ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish loyihasini yaratish, maqsad samaradorligini oshirishga qaratilgan hamkorlik shakl, metod, vositalarni o‘rganishga doir indikatorlarni ishlab chiqish kerak. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlarda pedagogik shart-sharoit, imkoniyat yaratish talab etiladi:

- hamkorlikka tayyorlash uchun talabalarni ota-onalar bilan hurmat bilan muloqot qilish motivlarini faollashtirish;

- ota-onalar bilan kreativ, ilmiy-ijodiy va mustaqil ishlash uchun hamkorlik faoliyat mazmuni bo‘yicha talabalarda bilim va tasavvurlar tizimini shakllantirish;

- talabalarning qobiliyat va layoqatiga qarab kreativ, hamkorlik faoliyati mustaqil ishlash kompetensiyalarini aniqlash;

- ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish orqali pedagogik muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish.

Uning muhim indikatorlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- talabalar pedagogik amaliyotida amal qilinayotgan modernizatsiyalashtirilgan amaliyot dasturining samaradorligi;

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va pedagogik texnologiyalarning qulayligi, ularning ota-onalar qiziqishlari, faolligi, hamkorlik faoliyatini o‘rganish mezonlari bo‘yicha hisoblash uslubiyoti talablariga muvofiqligi;

- pedagogik amaliyot faoliyatiga oid hujjatlarning yuritilishi;

- pedagogik amaliyotdagi talabalar hamkorlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy ishlarning bajarilishi;

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashga asoslangan faoliyat jarayoni amaliyot rahbarlarning talabalarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Bu borada keng tarqalgan metodik yondashuvlar ishontirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatish, o‘z-o‘zini tarbiyalashdan iborat.

Bo‘lg‘usi tarbiyachilarni tayyorlash, tarbiyalash mamlakatimizda bir qator islohotlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarning modernizatsiyalashuvi, oliy ta’lim taraqqiyoti va talabalarni tarbiyalash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir [11].

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. [Internet manba]. URL: http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv30-09-2020 (Мурожаат этилган сана: 03.01.2024)

2. *Рубинштейн С.Л.* Общественное или семейное воспитание? – Москва: Издательство: Задруга, 1916. – 120 с.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi. 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-sonli qonuni [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/-4646908. (Murojaat etilgan sana: 18.06.2020)

4. *Азимова З.Э*. Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари интеграл диагностикаси: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 179 б.

5. *Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.* Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 266 b.

6. *Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova M.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 683 b.

7. *Abdurahmonova S.Sh.* Pedagogik amaliyot – talabalarni ijodiy potensialini oshirish omili sifatida // Global transformatsiyalar davrida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish: innovatsiya va istiqbollar**.** Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2023. – B. 634–637.

8. *Abdurahmonova S.Sh., Ergasheva S.U*. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni // Science and education scientific journal, 2023. – Vol. 4. – Issue 7. – B. 482–484.

9. *Abdurahmanova S.Sh.* Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik-madaniyatni rivojlantirishning antroposentrizm tamoyili // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022. Maxsus son. – № 6–2. – B. 92–99.

10. *Abdurahmanova S.Sh.* Metodika fanlarni o‘qitish texnologiyasi fanidan amaliy-seminar mashg‘ulotlar va metodikalar**.** – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovati, 2023. – 119 b.

11. *Abdurahmanova S.Sh.* Akmeologik yondashuv – bo‘lg‘usi tarbiyachilarda kasbiy tayyorgarligini oliy ta’limda takomillashtirishning asosi sifatida // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2023. – № 1(3). – B. 127–135.

WAYS OF PREPARING STUDENTS TO COOPERATE WITH PARENTS THROUGH PEDAGOGICAL PRACTICE

Sayyorakhan Sh. Abdurakhmanova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 2 (78). 3-13.

[1]University of economics and pedagogy, Andijan, 170119, str. A.Yuldashev, 14 (Uzbekistan). E-mail: nikto.niktoooo@mail.ru

Key words: pedagogical (qualification) practice, MTT, culture of cooperation, professional standard of a teacher, role of a teacher, principle, form.

The article explores the socio-pedagogical necessity, condition, content, principles and forms of preparing students for cooperation with parents through the means of pedagogical practice. It is noted that the professional standard of the Educator of the preschool educational organization, the implementation of cooperative activities by instilling in students the norms of behavioral behavior, is an important task.

To do this, a positive healthy environment during the internship serves to make students directly observe the activities of the educator, feel their active behavior in their imagination.At the same time, the desire, interest and emotional rise of a student strong mental tension does not lead to overwork, and the fact that it is useful affects the development of the ability to train students to self-realization in the professional sphere, to constantly enrich their knowledge and skills. Any collaborative activity is based on certain principles and is directed to the professional formation of students.

It should be noted that the requirements for the process of pedagogical practice, the principles and ways of organizing and managing the practice, develop students mentally and physically, cooperate, direct them to work in cooperation, properly organize their personal activities, engage in communication, eliminate pedagogical problems and disagreements, create an atmosphere of creative, workmanship in the MTT, provides for an introduction to concepts related to a clear and correct assessment of activity during the period of practice. The preschool organization and the family are strongly connected, and the better communication is established between them, the more support the child receives and the more chances that his initial educational experience will be successful.In the process of feeling and trying to overcome existing problems, the period of pedagogical practice mihim serves as a tool as an experiment. After all, practical skills are refined in exchange for experiments.

Forms of Organization of cooperation of students with parents through pedagogical practice, development and implementation of guidelines and guidelines for new pedagogical technologies, formation of professional qualities, narration of communicative competencies, application of theoretical and practical knowledge in effective activities together with parents. As a result, conditions are created for the occurrence of the following conditions. By means of pedagogical practice, students are satisfied at the level of opportunities to prepare them for cooperation with parents, cooperation in professional activities increases the responsibility of students in relation to activities, the realization of professional qualities is ensured, communicative competence skills of students with parents are formed, the confidence that students can enrich their knowledge as educators in the future arises

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the ceremony dedicated to the Day of Teachers and Coaches]. [Online]. URL: http://uza.uz/oz/ documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv30-09-2020 (Date of Access: 03.01.2024)

2. Rubinshtejn, S.L. (1916) *Obshchestvennoe ili semejnoe vospitanie?* [Public or family education]. Moscow: Izdatel’stvo: Zadruga.

3. (2019) O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi. 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-sonli qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan “On preschool education and training” dated 12.16.2019 . ORQ-595]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/-4646908 (Date of Access: 18.06.2020)

4. Azimova, Z.E. (2009) O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi [Integrated diagnosis of students’ interpersonal relations]. The Dissertation for the Candidate of pedagogical Sciences. Tashkent.

5. Tolipov, O‘.Q., Usmonboyeva, M. (2006*) Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari* [Research bases of pedagogical technologies]. Tashkent: Fan.

6. Kadirova, F.R., Toshpo‘latova, Sh., Kayumova, N., A’zamova, M. (2019) *Maktabgacha pedagogika* [Preschool pedagogy]. Tashkent: Tafakkur.

7. Abdurakhmanova, S.Sh. (2023) Pedagogik amaliyot – talabalarni ijodiy potensialini oshirish omili sifatida [Pedagogical practice as a factor of increasing the creative potential of students]. Global transformatsiyalar davrida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish: innovatsiya va istiqbollar [Improving the quality of preschool education in the era of global transformations: innovation and prospects]. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Proceedings of the international scientific and practical conference]. Andijan. Pp. 634-637.

8. Abdurakhmonova, S.Sh., Ergasheva, S.U. (2023) Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni [The content of cooperation between students and parents by means of pedagogical practice]. *Science and education scientific journal*. Vol. 4. Issue 7. Pp. 482-484.

9. Abdurakhmanova, S.Sh. (2022) Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik-madaniyatni rivojlantirishning antroposentrizm tamoyili [The principle of anthropocentrism in the development of pedagogy and culture in future educators]. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar*. Special issue. No. 6-2. Pp. 92-99.

10. Abdurakhmanova, S.Sh. (2023) *Metodika fanlarni o‘qitish texnologiyasi fanidan amaliy-seminar mashg‘ulotlar va metodikalar* [Methodology, practical-seminar exercises and methods from the science of science teaching technology]. Tashkent: Ilm-ziyo-zakovati.

11. Abdurakhmanova, S.Sh. (2023) Akmeologik yondashuv – bo‘lg‘usi tarbiyachilarda kasbiy tayyorgarligini oliy ta’limda takomillashtirishning asosi sifatida [Acmeological approach - as a basis for improving the professional training of future teachers in higher education]. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.* No. 1(3). Pp. 127-135.

Muallif haqida ma’lumot:

ABDURAHMONOVA Sayyoraxon Shaxobidinovna – “University of economics and pedagogy” NOTM, Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: abduraxmonovasayyora85@gmail.com